



O'zbekiston Respublikasi
ADLIYA VAZIRLIGI

**QONUNCHILIK HUJJATLARI VA ULAR
LOYIHALARINI TARTIBGA SOLISH TA'SIRINI
BAHOLASH TIZIMINING HOLATI BO'YICHA
2024-YIL YAKUNLARI YUZASIDAN**

AXBOROT

MUNDARIJA

Kirish	3
1. Asosiy ko'rsatkichlar	5
1.1. Qonunchilik hujjatlari loyihalarini tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazish holati.....	6
1.2. Amaldagi qonunchilik hujjatlarini tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazish holati.....	7
2. Islohotlar va ustuvor vazifalar	13
2.1. Tizimli tahlil natijalari	15
2.2. Islohotlar	18
3. Salohiyatni oshirish va xalqaro hamkorlik	22
3.1. Vazirlik va idoralar mutaxassislarining malakasini oshirish	24
3.2. Tajriba almashish bo'yicha xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar	27

KIRISH

2018-yilda Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlanishi qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish jarayonida keng qamrovli islohotlarning boshlanishiga zamin yaratdi. Ushbu Konsepsiyaning asosiy maqsadlaridan biri sifatida norma ijodkorligida **“aqlli tartibga solish”** (smart regulation) modelining elementlarini qo'llash belgilandi. “Aqlli tartibga solish” modeli loyihalarni ishlab chiqish jarayonining samaradorligini oshirish, ularning amaliy ta'sirini yanada aniq baholash va yaxshilashga xizmat qiladi.

Bu yo'nalishdagi muhim qadamlardan biri **tartibga solish ta'sirini baholash (TSTB)** institutining joriy etilishi hisoblanadi. TSTB, o'z navbatida, qonunchilik hujjatlarni ishlab chiqishda ilmiy hamda dalillarga asoslangan yondashuvni qo'llash, shuningdek, hujjatlarning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini chuqur va kompleks tahlil qilishni ta'minlaydi.

Tartibga solish ta'sirini baholash davlat boshqaruvidagi muammolar va maqsadlarni tahlil qilish, ushbu maqsadlarga erishish uchun optimal yechimlarni izlash, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari, iste'molchilar va davlat uchun foyda va xarajatlarni tahlil qilish orqali eng samarali usulni aniqlash jarayoni hisoblanadi.

Deyarli barcha rivojlangan xorijiy davlatlarda (jumladan, **AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va boshqalar**) qonunchilik barqarorligini ta'minlash va tartibga solish muhitini yaxshilashda tartibga solish ta'sirini baholash instituti muhim o'rin tutadi.

TSTB quyidagi maqsadlarga erishishga xizmat qiladi:



qonunchilikning
ta'sirini tahlil qilish va
samaradorligini oshirish



davlat boshqaruvida
shaffoflik va
hisobdorlikni ta'minlash



tartibga solish yukini optimallashtirish, tadbirkorlik muhitini
yaxshilash va mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish



TSTB tizimi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil
15-martdagi PQ-5025-son qarori bilan yo'lga qo'yilib, bosqichma-
bosqich norma ijodkorligi jarayoniga joriy etib kelinmoqda.



Birinchi bosqichda

TSTB qamrovi
faqat tadbirkorlik
faoliyatiga ta'sir
etuvchi qonunchilik
hujjatlari bilan
cheklangan edi.



Ikkinchi bosqichda 2023-yildan

boshlab TSTB doirasi sezilarli
darajada kengaytirilib, fuqarolarning
huquqlari, erkinliklari va qonuniy
manfaatlariga hamda atrof-muhitga
ta'sir ko'rsatuvchi qonunchilik
hujjatlarini ham qamrab oldi.

Adliya vazirligi TSTB tizimini muvofiqlashtiruvchi organ sifatida ushbu tizimni samarali joriy etish va uning doimiy rivojlanishini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlarni olib bormoqda. Mazkur axborotda soha rivojlanishiga oid asosiy ko'rsatkichlar, amalga oshirilgan islohotlar, xalqaro hamkorlik natijalari hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar haqida batafsil ma'lumot keltirilgan.



1



ASOSIY KO'RSATKICHLAR



1. ASOSIY KO'RSATKICHLAR

1.1. Qonunchilik hujjatlari loyihalarini tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazish holati

Tartibga solish ta'sirini baholash tizimi joriy etilgan **dastlabki to'rt yil davomida vazirlik va idoralar faoliyatida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi**. Xususan, **2024-yil yakunlari** bo'yicha TSTB hisoboti bilan taqdim etilgan normativ-huquqiy hujjatlar (NHH) loyihalarining ulushi **77 foizga** yetdi. Ushbu ko'rsatkichni avvalgi yillar bilan taqqoslaganda (1-jadval), tizim joriy etilgan dastlabki yilda **25 foizni** tashkil etgan.




2022-yilda TSTB hisobotlari soni va qonunchilik hujjatlari loyihalari ulushi keskin o'sib, jami **250 ta** loyihani tashkil qildi va **73 foizga** yetdi. Biroq, 2023-yilda baholangan loyihalar ulushi **65 foizga** tushganiga qaramay, ularning soni qariyb ikki baravar oshib, **458 tani** tashkil etdi. Bunday o'zgarishlar tizimni joriy etishning ikkinchi bosqichiga o'tish, ya'ni TSTB qamrovining fuqarolar huquqlari, erkinliklari va atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi qonunchilik hujjatlariga kengayishi bilan izohlanadi.

2024-yilda TSTBdan o'tkazilgan holda ishlab chiqilgan loyihalar soni yanada oshib, **516 tani** tashkil etdi. Miqdoriy tahlil natijalari vazirlik va idoralar tomonidan norma ijodkorligi faoliyatida "aqlli tartibga solish" modeli izchil tatbiq etilayotganini ko'rsatmoqda.

Davlat organlari tomonidan qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqishda loyihalarni TSTBdan o'tkazish, TSTB bo'yicha hisobot to'ldirish holati tahlil qilinganda quyidagi vazirlik va idoralar ijobiy natija ko'rsatganligi ma'lum bo'ldi (2-jadval):

2-jadval



Shu bilan birga, 2024-yilda TSTBdan o'tkazilishi kerak bo'lgan **672 ta** loyihaning **156 tasi** yoki **23 foizi** mas'ul vazirlik va idoralar tomonidan **baholashdan o'tkazilmagan, TSTB bo'yicha hisobot to'ldirilmagan hamda xulosa beruvchi organlarning xulosalari olinmagan.**

Shuningdek, **202 ta** yoki **39 foiz** loyihalarning TSTB hisoboti Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning tartibga solish ta'sirini baholash **uslubiyoti** (*ro'yxat raqami 3292, 2021-yil 31-mart*) **talablariga muvofiq emasligi** to'g'risida Adliya vazirligi tomonidan xulosa berilgan.


Xususan, TSTB hisobotlari bo'yicha berilgan salbiy xulosalarda huquqni qo'llash amaliyoti yetarli darajada tahlil qilinmagani, tegishli sohani tartibga solish uchun normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish zaruriyati yetarlicha asoslantirilmagani kabi kamchiliklar qayd etilgan.

Shuningdek, ba'zi hollarda muammoni hal etishning muqobil usullari ko'rib chiqilmagani, manfaatdor tomonlar uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan foyda va xarajatlarning chuqur tahlil qilinmagani hamda ehtimoliy oqibatlarining yetarlicha baholanmagani aniqlangan.

Bundan tashqari, loyihada tanlangan tartibga solish usuli qo'yilgan maqsadlarga erishish imkonini bermasligi, konseptual jihatdan yetarli darajada ishlab chiqilmagani hamda samaradorlik nuqtai nazaridan sust ekani ham asosiy e'tirozlardan bo'lgan.

Adliya vazirligiga TSTB hisobotlari bilan kiritilgan loyihalar ulushi bo'yicha eng quyi ko'rsatkichlar Transport (**10 foiz**), Ichki ishlar (**63 foiz**), Maktabgacha va maktab ta'limi (**64 foiz**), Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi (**65 foiz**) va Sog'liqni saqlash (**67 foiz**) vazirliklari hisobiga to'g'ri keladi (*3-jadval*).

3-jadval

**TSTB hisobotlari bilan kiritilgan loyihalar ulushi bo'yicha
eng yuqori natijalarni ko'rsatgan vazirlik va idoralar**


Shuningdek, Adliya vazirligi loyihada manfaatdor tomonlar asossiz xarajat qilishi, ortiqcha majburiyat yuklashi, taqiq va cheklovlar mavjudligi, muammo taklif etilayotgan tartibga solish usuli bilan hal etilishining asosligini o'rganadi.

2021 – 2024-yillarda qonunchilik hujjatlari loyihalarning TSTBdan o'tkazilishi natijasida jismoniy va yuridik shaxslar, shu jumladan, tadbirkorlik subyektlariga **8,5 trln so'mdan** ortiq qiymatda asossiz xarajat keltiruvchi talablar, majburiyat yuklovchi hamda taqiq va cheklovlar o'rnatuvchi normalar chiqarib tashlandi.

1.2. Amaldagi qonunchilik hujjatlarini tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazish holati

2021-2024-yillar davomida amaldagi qonunchilik hujjatlarini TSTBdan o'tkazish ko'rsatkichi **13 foizga** yetkazildi. Xususan, 2021-yilda **14 ta**, 2022-yilda – **18 ta** qonunchilik hujjatlari TSTB doirasida samaradorligi o'rganildi (4-jadval).

4-jadval



Xususan, 2024-yil 9-yanvarda amaldagi qonunchilik hujjatlarining TSTBdan o'tkazilishi natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish, shuningdek, samarasiz va tadbirkorlik subyektlariga ortiqcha ma'muriy yuk yuklovchi normalarni qisqartirishga qaratilgan **2 ta** Prezident hujjati qabul qilindi.

Misol uchun, tadbirkorlik subyektlari tomonidan hisobot va statistik ma'lumotlarni tegishli davlat organlariga taqdim etish jarayonlarini baholash

natijasida bir qator tizimli va ma'muriy muammolar aniqlangan. Xususan, bitta kichik tadbirkorlik subyektini yillik moliyaviy hisobot shakllarini to'ldirish uchun o'rtacha **12 soat**, statistika hisoboti shakllari bo'yicha **4 soat**, soliq hisoboti shakllari bo'yicha esa **15 soat** vaqt sarflashi aniqlangan.

✓ **410 mingdan** ortiq tadbirkorlik subyektlarining bir yil davomida statistika hisoboti shakllarini to'ldirish va topshirish o'rtacha **317 mlrd so'mdan** oshiq xarajatlarni tashkil qilishi hisoblangan.

✓ Natijada, **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi PQ-8-son qarori** bilan tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat organlariga hisobot va statistik ma'lumotlarni taqdim etish jarayonlarini soddalashtirish bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Shuningdek, **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 9-yanvardagi PF-8-son Farmonida** tadbirkorlik sohasidagi majburiy talablarni qisqartirish, shuningdek, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish bo'yicha muhim chora-tadbirlar belgilandi.

Jumladan, turoperatorlar uchun favqulodda holatlar yuzaga kelganda xavfni majburiy sug'urta qilish tizimini joriy etish orqali "chiqish turizmi" yo'nalishida faoliyat yuritish uchun **15 ming AQSh dollari** ekvivalentidagi mablag'ni zaxira sifatida saqlash talabi bekor qilindi. Bu esa tadbirkorlar uchun moliyaviy yukni kamaytirish bilan birga, turizm sohasidagi biznes muhitini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Mazkur Farmon bilan 2024-yilda normativ-huquqiy hujjatlarning tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazish rejasi tasdiqlandi. Rejaga

muvofig, 2024-yilda tegishli mas'ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda **27 ta** yo'nalishdagi muhim ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga ega **39 ta** normativ-huquqiy hujjat tartibga solish ta'sirini baholashdan o'tkazildi. Ulardan:

- ✓ iqtisodiyotning turli yo'nalishlariga (davlat mulkini boshqarish, tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi, soliq qonunchiligi va boshqalar) – **13 ta**,
- ✓ tashqi savdo faoliyatiga – **4 ta**,
- ✓ sanoat ishlab chiqarish faoliyatiga – **4 ta**,
- ✓ kadastr va mulkiy munosabatlarga – **8 ta**,
- ✓ ta'lim, tibbiyot va boshqa ijtimoiy munosabatlarga – **6 ta**,
- ✓ infratuzilma va transport-kommunikatsiya sohasiga – **4 ta** normativ-huquqiy hujjat to'g'ri keldi (5-jadval).

5-jadval

TSTBDan o'tkazilgan amaldagi qonunchilik hujjatlari soni, sohalar kesimida





Mazkur rejaning ijrosi doirasida 2024-yil davomida **5 ta** yo'nalish bo'yicha tegishli Prezident hujjatlari qabul qilindi,



4 ta yo'nalishda axborot-tahliliy ma'lumotlar va qonunchilik hujjati loyihalari ishlab chiqilib, Hukumatga kiritildi.



Shuningdek, Adliya vazirligi tomonidan TSTB natijalari asosida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha qonunchilik hujjati loyihasi ishlab chiqilmoqda.



2


ISLOHOTLAR VA USTUVOR VAZIFALAR

2. ISLOHOTLAR VA USTUVOR VAZIFALAR

2.1. Tizimli tahlil natijalari

So'nggi uch yil davomida Adliya vazirligi tomonidan xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda TSTB tizimining samaradorligini tahlil qilish bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, 2022-yilda **Jacobs, Cordova & Associates** kompaniyasining xalqaro eksperti Sezar Kordova bilan hamkorlikda tahliliy ishlar amalga oshirildi.

Shuningdek, 2023-2024-yillarda **Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT)**¹ tomonidan o'tkazilgan hamda Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) moliyaviy ko'magida amalga oshirilgan **“Davlat boshqaruvi sharhi”**ning (5-bob: Dalillarga asoslangan siyosatni ishlab chiqish va O'zbekistonda tartibga solish sifatini oshirish) doirasida batafsil o'rganishlar olib borildi.



¹ **Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)** – iqtisodiy rivojlangan 38 ta a'zo davlatdan iborat xalqaro tashkilot bo'lib, iqtisodiy o'sish, xalqaro savdo va tartibga solish siyosati bo'yicha standartlarni belgilaydi.

Ma'lumot uchun: tadqiqotlar davomida asosan biznes jarayoni reinjiningi, xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari bilan qiyoslash va IHTT standartlariga muvofiqlikni baholash metodologiyasidan foydalanildi.

Ta'kidlash joizki, IHTT tomonidan mamlakatimizda "aqlli tartibga solish" modeli va tartibga solish ta'sirini baholash tizimini joriy etish bo'yicha yaratilgan qonunchilik bazasi va tizimning shakllantirilishini ijobiy baholanib, ushbu yo'nalishda sezilarli yutuqlar va kuchli siyosiy iroda mavjudligi alohida qayd etildi. TSTBning institutsional asoslari va qonunchilik bazasi xalqaro standartlariga mosligi qayd etildi. Milliy tizimning muhim jihatlaridan biri sifatida TSTB hisobotlari bo'yicha bir nechta xulosa beruvchi organlarning mavjudligi baholash jarayonlarining sifati va shaffofligini oshirishga xizmat qilishi e'tirof etildi.



Shu bilan birga, TSTB tizimining samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalar bildirildi:



TSTB jarayonini qonunchilik hujjati loyihasini ishlab chiqishdan oldin amalga oshirish zaruriyati: aksariyat hollarda qonunchilik hujjati loyihasi ishlab chiqilganidan so'ng TSTB o'tkazilishi kuzatilmoqda. IHTTning tavsiyalariga ko'ra, TSTB samaradorligini oshirish uchun baholash qonunchilik hujjati loyihasi ishlab chiqilishidan oldin o'tkazilishi zarur. Bunda loyihaning ishlab chiqilishidan avval baholash o'tkazilishini nazorat qiluvchi mexanizmni yo'lga qo'yish lozim;



mutanosiblik tamoyilini qo'llash: ushbu tamoyil asosida TSTBni amalga oshirish uchun resurslar hajmi ishlab chiqilib, qonunchilik hujjati loyihasining ta'sir darajasiga mutanosib sarflanishi zarur. Bunda, qonunchilik hujjati loyihasining ta'sir darajasini aniqlash uchun aniq mezon yoki mexanizm ishlab chiqilishi zarur;

- ✓ **amaldagi qonunchilik hujjatlarini baholash tizimini kengaytirish:** amaldagi qonunchilik hujjatlarini baholashni kengaytirish va uning samaradorligini oshirish uchun alohida uslubiy bazani ishlab chiqish tavsiya etiladi. Ushbu baza baholash jarayonida yagona yondashuvlar, standartlar va vositalarni ta'minlaydi;
- ✓ **manfaatdor tomonlarni TSTB jarayoniga keng jalb qilish:** TSTB jarayonida fuqarolar, tadbirkorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalarini tinglash va ularni inobatga olish tizimini mustahkamlash zarur. Bunda manfaatdor tomonlar bilan ishlash uslublari bo'yicha qo'llanmalar va seminar treninglar orqali targ'ib qilish lozim;
- ✓ **Adliya vazirligining resurslarini kengaytirish:** uzoq muddatli samaradorlikni ta'minlash maqsadida Adliya vazirligining tahliliy va boshqa funksiyalarini amalga oshirish bo'yicha kadrlar, moliyaviy va texnik resurslarni kuchaytirish lozim;
- ✓ **vazirlik va idoralarining tahliliy salohiyatini oshirish:** TSTB jarayonlarini sifatli amalga oshirish uchun davlat organlari xodimlarining tahliliy ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan treninglar va boshqa tashabbuslarni kengaytirish zarur;
- ✓ **ma'lumotlar bazasini yaratish:** TSTB jarayonlarini samarali amalga oshirish va qarorlar qabul qilishda foydalanish uchun ishonchli va dolzarb ma'lumotlarni o'z ichiga olgan markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasini yaratish.

2.2. Islohotlar

Adliya vazirligi yuqorida keltirilgan o'rganishlar natijasida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda TSTB tizimini samaradorligini oshirish va xalqaro ekspertlar tavsiyalarini qo'llash maqsadida bir qator tashabbuslarni ilgari surdi. Natijada quyidagi **2 ta** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari qabul qilindi.

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF–80-son Farmoni bilan Adliya vazirligi huzurida **Qonunchilikni tahlil qilish va tartibga solish ta'sirini baholash instituti** tashkil etildi.

Institut Adliya vazirligi funksiyalarini samarali amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Vazirlikning TSTB boshqarmasi vazirlik va idoralarning ushbu sohadagi faoliyatini muvofiqlashtirish, qonunchilik hujjatlari loyihalari bo'yicha TSTB hisobotlari sifatini nazorat qilish uchun mas'ul bo'lsa, Institut faoliyati amaldagi qonunchilikni samaradorligini o'rganish, vazirlik va idoralarga uslubiy ko'mak berish va metodik tavsiyalarni ishlab chiqish, shuningdek TSTB sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga qaratiladi. Shu tariqa, Institut Adliya vazirligi resurslarini sezilarli darajada kengaytirib, TSTB tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

II. TSTB tizimini takomillashtirish hamda uning norma ijodkorligi jarayonidagi rolini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning barqarorligini ta'minlash, sifati va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 16-avgustdagi PF–111-son Farmoni qabul qilindi. Farmon bilan norma ijodkorligi jarayonlari, xususan, qonunchilik hujjatlarini loyihalarini tayyorlash va **TSTB jarayonlari takomillashtirildi.**

1. TSTBning yangicha tartibi joriy etilib, 2025-yildan boshlab barcha qonunchilik hujjatlari loyihalari ikki bosqichda – **soddalashtirilgan va kengaytirilgan tartibda** TSTBdan o'tkaziladi. Ushbu tartib orqali IHTning mutanosiblik tamoyilini qo'llash bo'yicha tavsiyasi amalga oshiriladi.

Bunda majburiyat, talab, taqiq, javobgarlik yoki boshqa cheklolarni belgilaydigan qonunchilik hujjatlari bo'yicha hali ularning loyihasi yozilishidan **oldin uning konsepsiyasi ishlab chiqiladi va soddalashtirilgan TSTBdan o'tkaziladi** va Adliya vazirligining xulosasi olinadi. Natijada, baholashni loyihani ishlab chiqishdan avval o'tkazish va dastlabki jarayonda turli tartibga solish usullarini o'rganish samarali yechimlarni ishlab chiqishga erishiladi.

✓ **Soddalashtirilgan TSTB natijasi bo'yicha iqtisodiy, ijtimoiy va atrof-muhitga ta'siri darajasi yuqori deb topilgan loyihalar kengaytirilgan TSTBdan o'tkaziladi.**

✓ Bu orqali aholi va biznesga ortiqcha va asossiz xarajat, ma'muriy to'siqlarning oldi olinadi. Amalda samarasini bermaydigan, raqobat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan imtiyoz va preferensiyalar natijasida yuzaga keladigan davlat budjeti yo'qotishlari jiddiy kamaytiriladi.

TSTBning yangi tartibini joriy etish maqsadida Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning tartibga solish ta'sirini baholash uslubiyotiga (ro'yxat raqami 3292, 31.03.2021-y.) o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, loyihalarning ta'sir doirasini aniqlash mezonlari belgilandi.

- ✓ Jumladan, loyihalarning iqtisodiy (kichik va o'rta tadbirkorlik, raqobat muhiti, bandlik va mehnat bozori va boshqalar), ijtimoiy soha (ijtimoiy adolat va gender tenglik, kambag'allik darajasi, sog'liqni saqlash va boshqalar) hamda atrof-muhitga (tabiiy resurslar, havo, suv va tuproq sifati va boshqalar) ta'sirini baholash bo'yicha mezonlar ishlab chiqildi.

- Shu bilan birga, soddalashtirilgan va kengaytirilgan TSTB hisoboti shakllari tasdiqlandi va  Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimida (loyiha.adliya.uz) TSTB hisobotlarini onlayn shakllantirish imkoniyatlari yaratildi.

2. Qonunchilik hujjatlari loyihalarini tayyorlashda, ularning ta'sirini baholashda **ilmiy tashkilotlar hamda nodavlat notijorat tashkilotlari keng jalb qilinadi.** Qonun loyihalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot muassasalaridan majburiy ravishda xulosa olinadi va ushbu xulosa loyihani Adliyaga vazirligiga kiritishda ilova qilinadi.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari zimmasiga yangi majburiyat, talab, taqiq, javobgarlik yoki boshqa cheklovlar yuklatilishini nazarda tutuvchi loyihalar va TSTB hisoboti bevosita tadbirkorlik subyektlari hamda ularning birlashmalari ishtirokida muhokama qilinadi.

- ✓ Vazirlik tomonidan qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqishda jamoatchilikni jalb etish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqildi va vazirlik va idoralarga yuborildi.

3. Amaldagi qonunchilik hujjatlarini TSTBdan o'tkazish davriyligi qat'iy belgilandi. Endilikda qonunlarning samaradorligi har besh yilda, qonunosti hujjatlari har uch yilda TSTBdan o'tkaziladi.
4. Farmonning yana bir katta yangiligi – qonunchilik hujjati ijrosini **monitoring qilish tizimi** yo'lga qo'yiladi. Bunda loyihani ishlab chiqishda unga **monitoring dasturi** ilova qilinadi. Dasturga monitoring uchun mas'ul davlat organi belgilanadi.

Hujjat qabul qilingandan so'ng uning ijrosi har yili kuzatib boriladi. Monitoring natijalari Adliya vazirligiga majburiy ravishda taqdim etiladi va mas'ul davlat organining veb-saytida e'lon qilib boriladi.

5. TSTBni sifat jihatdan ta'minlash hamda vazirlik va idoralarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida Adliya vazirligi tomonidan Qonunchilik hujjatlari loyihalarini tartibga solish ta'sirini baholash **reytingi** yuritiladi va OAVda e'lon qilib boriladi. Reytingda **dastlabki uch o'rinni** egallagan davlat organlarining baholashga mas'ul xodimlari tegishli davlat organining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan **moddiy rag'batlantiriladi**.

Shuningdek, davlat organlarida **strategik rejalashtirish va metodologiya bo'yicha tarkibiy bo'linmalar** TSTB jarayonlariga mas'ul etib belgilandi. Ushbu bo'linmalar xodimlari har ikki yilda kamida bir marta majburiy ravishda malakasini oshiradi.

Adliya vazirligi TSTB yo'nalishini rivojlantirish doirasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va markazlashtirilgan ma'lumotlar bazalarini yaratishni **ustuvor vazifalardan biri** sifatida belgilab, bu borada izlanish va tadqiqotlarni faol olib bormoqda. Xususan, tizimni avtomatlashtirish, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishda zamonaviy algoritmlar va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari o'rganilmoqda. Shuningdek, ma'lumotlar bazalarining uzluksiz yangilanib borishi va turli davlat organlari

hamda manfaatdor tomonlar bilan integratsiyasini ta'minlash orqali qarorlar qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish va sifatini oshirish rejalashtirilgan. Bu tashabbuslar TSTB jarayonlarining shaffofligini ta'minlash, samaradorligini oshirish va davlat boshqaruvida innovatsion yondashuvlarni joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.



3

SALOHİYATNI OSHIRISH VA XALQARO HAMKORLIK

3. SALOHİYATNI OSHIRISH VA XALQARO HAMKORLIK

3.1. Vazirlik va idoralar mutaxassislarining malakasini oshirish

- ✓ Vazirlik va idoralarning mas'ul xodimlariga qonunchilik hujjatlari va ular loyihalarini TSTBdan o'tkazish bo'yicha



25 dan ortiq onlayn va oflayn shakllarda o'quv va amaliy seminarlar, tushuntirish tadbirlari tashkil etildi.

Jumladan, amaldagi qonunchilik hujjatlarini TSTBdan o'tkazish reja-grafigi (2024-yil 9-yanvardagi PF-8-son Farmon) bo'yicha ishlarni tizimli tashkil etish hamda vazirlik va idoralar mas'ul xodimlariga metodik yordam ko'rsatish uchun Boshqarma xodimlari biriktirilib ularga yil davomida uslubiy ko'mak ko'rsatildi.



4-5-iyunda Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti bilan birgalikda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti va Buyuk Britaniyaning ekspertlari tomonidan 2 kunlik seminar tashkil qilindi. Seminarda **40 dan ortiq** davlat tashkilotlarining mutaxassislari ishtirokida "aqlli tartibga solish"

modeli, TSTB bo'yicha ilg'or xalqaro tajriba va IHTTning tavsiyalari to'g'risida tushuntirishlar berildi.

15-19-iyulda AQSH Xalqaro hamkorlik agentligi (USAID) bilan hamkorlikda Buyuk Britaniyaning London universiteti Ilg'or fanlar huquqiy tadqiqotlar institutining (IALS) dotsenti Mariya Mousmoti ishtirokida TSTB bo'yicha bir haftalik o'quv seminari tashkil etildi.



8-noyabrda USAIDning moliyaviy ko'magida amalga oshirilgan **10 ta** moduldan iborat **“Tartibga solish ta'sirni baholash” o'quv qo'llanmasi-ning** taqdimoti va TSTBning soddalashtirilgan va kengaytirilgan tartiblari (2024-yil 16-avgustdagi PF-111-son Farmoni) bo'yicha seminar bo'lib o'tdi. Ushbu qo'llanma TSTB instituti shakllanishi va rivojlanishining asosiy bosqichlari, uni milliy amaliyotda qo'llash xususiyatlari, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlarning jamiyat hayotining turli jabhalariga ta'sirini baholash bo'yicha batafsil metodologiyani qamrab oladi.

- ✓ Qo'llanma davlat aralashuvining zaruriyati, “aqlli” tartibga solish konsepsiyasi, iqtisodiy tahlil, ma'lumotlarni yig'ish usullari va ularning samaradorligini tahlil qilish kabi muhim mavzularni qamrab oladi. Alohida modullarda qonun hujjatlarining iqtisodiyot, tadbirkorlik, raqobat muhiti, ijtimoiy soha, gender tengligi va atrof-muhitga ta'siri batafsil ko'rib chiqilgan.



18 – 20-noyabrda Finlyandiyaning Xelsinki universitetining Huquq ustuvorligi markazi bilan hamkorlikda “Qonunchilik hujjatlarining nogironligi boʻlgan shaxslar huquq va manfaatlariga taʼsirini baholash” mavzusida uch kunlik oʻquv seminari tashkil etildi.

Seminarda Adliya vazirligi xodimlari bilan bir qatorda Qonunchilik hujjatlarini tahlil qilish va tartibga solish taʼsirini baholash instituti, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Sogʻliqni saqlash vazirligi kabi qator davlat organlari hamda bir qator nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari ishtirok etdi.



Ishtirokchilar xorijiy ekspertlar bilan birgalikda qonunchilik hujjatlarining nogironligi boʻlgan shaxslarga taʼsiri yuzasidan inson huquqlariga asoslangan yondashuvlarni koʻrib chiqdilar. Asosiy eʼtibor jamiyatda inklyuzivlikni taʼminlash, jumladan, nogironligi boʻlgan shaxslar taʼlimi, bandligi boʻyicha amaldagi tartib va imtiyozlar samaradorligini, qonunlar qay darajada ijro etilayotganligini tahlil qilish borasida Oʻzbekiston va Finlyandiya tajribasiga qaratildi.



Shuningdek,
bir qator
tashkilotlar,
jumladan,



Qishloq xo'jaligi vazirligi, Energetika
bozorini rivojlantirish va tartibga solish
agentligiga tashrif buyurgan holda
xodimlar malakasi oshirildi.

3.2. Tajriba almashish bo'yicha xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilayotgan loyihalar

Adliya vazirligi tomonidan TSTB yo'nalishidagi salohiyatni oshirish va ilg'or xalqaro tajribalarni o'rganish maqsadida xalqaro tashkilotlar va yetakchi xorijiy institutlar bilan faol hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Xususan, Finlyandiya Helsinki universitetining Huquq ustuvorligi markazi, Yevropa Ittifoqining "Twinning" loyihasi, AQSH Xalqaro hamkorlik agentligi (USAID) hamda Janubiy Koreya va Birlashgan Arab Amirliklarining davlat organlari bilan yaqin hamkorlikda ish olib borilmoqda.



Finlyandiyaning Huquq ustuvorligi markazi bilan hamkorlik doirasida Adliya vazirligi delegatsiyasi 2024-yilning **22-26-aprel** kunlari **Finlyandiyaga** xizmat safari bilan tashrif buyurib, 9 ta davlat organining TSTB bo'yicha faoliyatini o'rgandi.

Jumladan, Adliya vazirligi, Iqtisodiyot va bandlik vazirligi, Atrof-muhit vazirligi bilan uchrashuv o'tkazildi. Tashrif davomida Huquq ustuvorligi markazi bilan 2024-2025-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi tasdiqlandi.

Unga asosan, qonunchilik hujjatlarining atrof-muhitga, ijtimoiy sohaga ta'sirini baholash masalalari bo'yicha o'quv safarlari va seminarlar tashkil etildi. Jumladan, Finlyandiyaning ekologik qonunchilik hujjatlari va ularning loyihalariga atrof-muhitga ta'sirni baholash borasidagi ilg'or tajribasini o'rganish maqsadida **15-20-dekabr** kunlari O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi, Adliya vazirligi hamda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi vakillaridan iborat delegatsiya Helsinki shahriga xizmat safarini amalga oshirdi. Ushbu xizmat safari davomida delegatsiya a'zolari Finlyandiyaning qonunchilik hujjatlari va ular loyihalarining atrof-muhitga ta'sirini baholash amaliyoti, tartibi va metodologiyasi o'rganildi.

4-11-may kunlari Adliya vazirligi delegatsiya Janubiy Koreyada xizmat safari bilan bo'lib, Hukumat ishlari vazirligi, Tartibga solish islohotlari qo'mitasi, Adliya vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyasi hamda Koreya qonunchilik tadqiqot institutida TSTB va korrupsiyaga qarshi ekspertiza masalalari bo'yicha Koreya tajribasi o'rganildi.



8-13-dekabr kunlari Adliya vazirligi delegatsiyaning Birlashgan Arab Amirliklariga tashrif tashkil etilib, ushbu mamlakatning qonunchilik hujjatlari ijrosini samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholash tajribasi o'rganildi. O'rganish natijalariga asosan qonunchilik hujjatlari ijrosini baholash uslubiyoti ishlab chiqildi va baholash amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Yevropa Ittifoqi bilan “Normativ-huquqiy bazani tizimlashtirish va soddalashtirish” bo‘yicha **ikki yillik “Twinning”** hamkorlik loyihasi ishga tushirildi. Loyiha doirasida Yevropa Ittifoqi tomonidan **Germaniya** va **Latviya** davlatlarining qonunchilikni tizimlashtirish, tartibga solish ta’sirini baholash va jamoatchilik bilan muhokamalar o‘tkazish bo‘yicha tajribasini o‘rganish va O‘zbekistonga joriy etish yuzasidan amaliy chora-tadbirlarni o‘tkazish rejalashtirilgan. Xususan, 2025-yilning birinchi yarim yilligida xorijiy ekspertlar bilan birgalikda TSTB bo‘yicha **3 ta** tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirish belgilandi.

